

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI

Sadullayeva Sevara Uchqun qizi

I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvining rivojlanish ko‘rsatkichlari, sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, uning o‘ziga xos xususiyatlari va mavjud muammolari, uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimiz sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishda ilg‘or xorij tajribasidan ijodiy foydalanish imkoniyatlariga oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, boshqaruv, innovatsion boshqaruv, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), yuqori texnologik mahsulot, innovatsion faoliyat, innovatsion ixtisoslashuv.

WAYS TO INCREASE EFFICIENCY BASED ON THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Abstract: The article assesses the development indicators of innovative management of industrial enterprises in Uzbekistan. The organizational and economic mechanism for the implementation of innovative management of industrial enterprises was also analyzed, its features and existing problems were identified. In the future, scientific proposals and practical recommendations have been developed on the possibility of creative use of advanced foreign experience to improve the efficiency of innovative management of the country's industrial enterprises.

Key words: innovations, management, innovation management, research and development (R&D), information and communication technologies (ICT), science-intensive products, innovation activity, innovation specialization.

Bugungi kunda jahon mamlakatlarida iqtisodiy o‘shishning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatida sanoat korxonalari boshqaruvi amaliyotiga innovatsion loyihalarni joriy etish orqali yangi iste'mol qiymatlarini yaratish, sanokt korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, shuningdek, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining global raqobatbardoshligi va innovatsion rivojlanish indeksi ko‘rsatkichlarini oshirishga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi amaliyotini rivojlantirishning jahon amaliyoti tahliliga ko‘ra, aynan innovatsiyalar bugungi kunda barqaror

iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida baholanadi. Ushbu holat innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish korxonaning iqtisodiy, moliyaviy va innovatsion jihatdan yuqori salohiyatga ega bo'lishi zarurligini asoslaydi. Jahon miqyosida iqtisodiy, moliyaviy, ekologik xavf-xatarlarning global miqyosda avj olib borishi natijasida bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, hom-ashyo eksportidan innovatsiyalarni tarqalishi natijasida ularni o'zlashtirish hisobiga bosqichma-bosqich yuqori texnologik, ilm-fan sig'imkorligi yuqori, raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarish ularni eksport qilishga ixtisoslashib borishmoqda. Jumladan, sport poyabzalining turli brendlari ishlab chiqarishda subpudratchi hisoblangan Indoneziya fabrikalari tayyor mahsulotni sotishdan olinadigan daromadning oz qismini oladi. Apple kompaniyasi uskunasi bir qismini ishlab chiqaruvchi Xitoy ishlab chiqaruvchisi uning 150 doll.lik to'liq qiymatidan 4,0 doll. oladi, foydaning aksariyat qismi esa AQSh, Yaponiya va Koreya Respublikasi kompaniyalariga tegadi. Jahon banki ma'lumotlari tahliliga ko'ra, bugungi kunda Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa va Sharqiy Osiyo mamlakatlari sanoat korxonalari yuqori innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlariga ega bo'lib, ushbu mamlakatlar sanoat korxonalari boshqaruvi amaliyotida innovatsiyalarni amaliyotga muntazam joriy etib borish bilan bir qatorda, sanoat korxonalari tomonidan innovatsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishga ustuvorlik qaratiladi. Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar sanoat korxonalari bugungi kunda qayta ishlash sanoatida innovatsiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan boshqaruv amaliyotiga ega bo'lib, ular hom ashyo ishlab chiqarishdan bosqichma-bosqich yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tishmoqda. Tahlillarga ko'ra, bugungi kunda ayrim bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qayta ishlash sanoati korxonalarida yuqori texnologik innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishgan bo'lsa, ayrimlari esa hom ashyo ishlab chiqarish sohalarini texnik-texnologik jihatdan qurollantirishga ustuvorlik qaratmoqdalar. Ushbu mamlakatlar xalqaro savdoda yuqori texnologik innovatsion mahsulotlarni sotish bo'yicha taraqqiy etgan mamlakatlardan sezilarli darajada ortda qolmoqdalar. Ularda ishlab chiqarilayotgan hom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlaklar tomonidan qayta ishlanib, yana o'zlariga tayyor mahsulot sifatida kirib keladi. Ushbu holat sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi holati va uning rivojlanganlik darajasi mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi.

Jahon banki ekspertlari tomonidan O'zbekistonning barcha hududlari kesimida sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi samaradorligi va innovatsion rivojlanish holatini baholash maqsadida qayta ishlash sanoati, chakana va ulgurji savdo, avtomobillarni ta'mirlash, mexmonxonalar va restoranlar, transport,

omborxona, aloqa, qurilish kabi sanoat tarmoqlarida xo'jalik faoliyati yurituvchi kichik, o'rta va yirik sanoat korxonalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma o'tkazildi. O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, so'nggi uch yilda mamlakatimizda jami korxonalarning faqatgina 23,2 foizi mahsulotga doir innovatsiyalarni, 14,4 foizi boshqaruvga oid innovatsiyalarni amaliyotga joriy etganligi aniqlangan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etgan korxonalarning 5,0 foizigina innovatsiyalarni kiritish uchun 100 AQSh doll.dan ko'proq mablag' sarflagan. Shuningdek, o'rganilayotgan davrda innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etgan korxonalarning 10 foizi tashqi bilimlarni o'zlashtirgan bo'lsa, 13 foizi ichki imkoniyatlardan foydalangan, 7 foizi esa shartnoma asosida autsorsingdan foydalanganligi aniqlangan. Jahon banki tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari tahliliga ko'ra, mamlakatimizda sanoat korxonalarining innovatsion faolligi ko'rsatkichi boshqa bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan ham sezilarli darajada past hisoblanadi. Jumladan, mamlakatimiz sanoat korxonalarining ITTKIga moliyalashtirish uchun xarajat qilgan korxonalarning ulushi quyi-o'rta daromadli mamlakatlar, Markaziy Osiyo va Yevropa mamlakatlarining o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan ko'p bo'lishiga qaramay, sarflangan xarajatlarning miqdori ushbu mamlakatlarga nisbatan sezilarli darajada kamdir. Shuningdek, mamlakatimizda mahsulotga doir va boshqaruv bo'yicha innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilayotgan korxonalar sonining ulushi ko'rsatkichi ham qiyosiy taqqoslash amalga oshirilayotgan mamlakatlarga nisbatan past hisoblanadi. Ushbu holat mamlakatimiz sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozoridagi global raqobatbardoshlik ko'rsatkichlariga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Sanoat korxonalarini innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etilishi korxonaning iqtisodiy samaradorlikka erishishi uchun muayyan darajada xizmat qiladi. Tahlillarga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatimizda mahsulotga doir innovatsiyalarni amaliyotga joriy etgan korxonalarda yollanma ishchilarning jon boshiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi innovatsiyalarni joriy qilmagan korxonalarga nisbatan o'rta hisobda 12 mln. so'mga, boshqaruvga oid innovatsiyalarni joriy qilgan korxonalarda esa 26 mln. so'mga, innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilishda tashqi bilimlarni o'zlashtirgan korxonalarda esa 19 mln. so'mga, innovatsiyalarni joriy etishda ichki va tashqi imkoniyatlardan samarali foydalanish hisobiga 44 mln. so'mdan ishlab chiqarish hamji ortganligi aniqlandi. Ushbu holat innovatsion boshqaruv amaliyotiga ega bo'lgan korxonalarda an'anaviy boshqaruvga ega bo'lgan korxonalarga nisbatan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi sezilarli darajada baland bo'lishidan dalolat beradi.

Jahon banki ekspertlari fikricha, innovatsion loyihani amaliyotga joriy qilgan korxonalarning an'anaviy boshqaruv amaliyotiga ega bo'lgan korxonalarga nisbatan

iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichi muayyan iqtisodiy hudud yoki tarmoq xususiyatlari, korxonaning ko'lami (katta, o'rta yoki kichikligi) kabi omillarning ta'sir doiralari kamayishi yoki ko'payishiga qaramay, 20-45 foiz oralig'ida yuqori bo'ladi.

Yuqoridagi vaziyatni inobatga olgan holda, mamlakatimizda sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini taklif etamiz. Mazkur mexanizmni ishlab chiqishda sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvini rivojlantirishning taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotiga asoslanildi. Bunda respublika hududlari kesimida mahalliy boshqaruv organlari (tuman, viloyat hokimiyatlari) huzurida Innovatsion rivojlanish markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish va ularning hududlardagi sanoat korxonalari uyushmalari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Taklif etilayotgan sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmida mahalliy boshqaruv organlari tomonidan quyidagi vazifalarini hal etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: hudud kesimida hududiy tarmoqlarda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar to'g'risida ma'lumotlarni jamlash; sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish va ularni muvofiqlashtirish, shuningdek, sanoat korxonalarini innovatsion rivojlanishi uchun yetarli darajada shart-sharoitlar yaratish (innovatsion infratuzilmani rivojlantirish); sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun ichki (maxalliy yoki davlat byudjeti, byudjetdan tashqari maqsadli fondlar mablag'lari) va tashqi (xalqaro donor tashkilotlar, xorijiy investorlar) manbalarni izlash va ulardan foydalanish.

Mamlakatimizda sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari tahliliga ko'ra, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonaning ko'lami ortib borgan sari, uning innovatsion faolligi ham mos ravishda ortadi. Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoqlarida xo'jalik faoliyati yurituvchi kichik korxonalarning 28 foizi, o'rta korxonalarning 30 foizi, yirik korxonalarning esa 32 foizi mahsulotga doir innovatsiyalarni o'z amaliyotiga joriy etishgan bo'lsa, boshqaruvga oid innovatsiyalar mos ravishda kichik korxonalarda 14 foizni, o'rta korxonalarda 19 foizni, yirik korxonalarda bo'lsa 22 foizni tashkil etgan. Shuningdek, hududlarda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi sanoat korxonalari uyushmalarini tashkil etilishi orqali innovatsiyalarni o'zaro uzatish teziligini oshirish bilan bir qatorda, korxonalar o'rtasidagi innovatsion hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish imkonini beradi. Taklif etilayotgan mexanizm asosida hududiy sanoat korxonalari uyushmalari quyidagi vazifalarni bajarishi lozim bo'ladi: sanoat korxonalari tomonidan innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etish; sanoat korxonalari o'rtasida innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha hamkorlikni shakllantirish; sanoat

korxonalari o'rtasida innovatsiyalarni o'zaro uzatishni jadallashtirish; innovatsion marketing tadqiqotlarini o'tkazish; yangi innovatsion loyihalarga bo'lgan talablarni shakllantirish; sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini rivojlantirishda ichki va tashqi imkoniyatlardan foydalanish samaradorligini oshirish Fikrimzcha, yuqorida taklif etilgan sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini amaliyotga joriy etish orqali uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimiz sanoat korxonalarining innovatsion faolligi darajasi ortib, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashning dasturlarining samaradorligi ko'rsatkichlari ortib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ибрагимова С., Садуллаева С. INNOVATIVE METHODS IN PRODUCTION QUALITY MANAGEMENT //Interpretation and researches. – 2025. – №. 6 (52).
2. Ибрагимова С. РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА МИРОВОМ РЫНКЕ //Interpretation and researches. – 2025. – №. 5 (51).
3. Abdumuminovna I. S. Management of innovative development socioeconomic systems //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 4. – С. 62-66.
4. Ibragimova S., Abdulazizov F. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ МЕХАНИЗМА КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ //Interpretation and researches. – 2025. – №. 1 (47).
5. Ибрагимова С., Абдулазизов Ф. Развитие корпоративного управления в Узбекистане на основе современных мировых стандартов //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2025. – Т. 3. – №. 1.
6. Ибрагимова С., Абдулазизов Ф. НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ //Talqin va tadqiqotlar. – 2025. – №. 1 (59).
7. Ibragimova S., Shagaipova G. Mamlakatimizning investitsiyaviy salohiyatini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish istiqbollari //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 3. – №. 1.
8. Ибрагимова С. ПЕРСПЕКТИВЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2022. – Т. 23. – №. 2. – С. 123-128.
9. Abdumuminovna I. S. Features of modern innovative development and formation of innovative system //Asian Journal of Research in Banking and Finance. – 2022. – Т. 12. – №. 3. – С. 14-17.

10. ИБРАГИМОВА С. А., ХУСАИНОВ Р. Р. PROSPECTS AND WAYS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 3. – С. 62-67.
11. Ibragimova S. A. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish istiqbollari //Jurnal: MOLIYA, TDMI. – 2020. – С. 115-123.
12. Хусайнов Р. Р., Ибрагимова С. А. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТЎҒРИ СОЛИҚЛАР ИСЛОҲОТИНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2020. – №. 2 (134). – С. 92-97.
13. Ibragimova S., Bakhodirova K. Formation of investment activities of energy enterprises //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 461. – С. 01074.
14. Abdumuminovna I. S. The main ways to ensure the economic security of industrial enterprises in the digital economy //JournalNX. – 2023. – Т. 9. – №. 1. – С. 29-33.
15. Husainov R., Ibragimova S. Financial literacy in uzbekistan //Interpretation and researches. – 2024. – Т. 2. – С. 24.
16. Ибрагимова С. А., Хусайнов Р. Р. ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 3 (139). – С. 62-67.
17. Ibragimova S. A. Analysis of models and methodological aspects of assessing the level of innovative development //Magazine" BIZNES-EXPERT. – 2019. – С. 101-104.
18. Ibragimova S. A., Shagaipova G. Z. MODERN PATTERNS OF DEVELOPMENT OF CORPORATE STRUCTURES IN UZBEKISTAN //Экономика и Финансы (Украина). – 2019. – №. 3. – С. 45-50.